



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдуназаровна Бабаназарова Инсон ресурсларидан самарали фойдаланишнинг концептуал йўналишлари	5
Раъно Суннатхоновна Умарова Давлат фуқаролик хизматчиларининг малакасини оширишга бўлган замонавий ёндашувлар	10
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Berdiyar Yangiboyevich Yangiboyev Sun'iy intellekt texnologiyalaridan milliy iqtisodiyotda foydalanishning ayrim jihatlari	18
Тўлқин Шокирович Эргашев Инновацион тадбиркорлик фаолияти билан кадрлар тайёрлаш менежменти ўртасидаги иқтисодий алоқадорликнинг намоён бўлиш хусусиятлари	21
Munavvar Sur'at qizi Xusniddinova Turizmدا raqamli texnologiyalardan foydalanish: jahon tajribasi va o'zbekiston uchun xulosalar	26
Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Интеграция вузов и предприятий в инновационном развитии экономики	32
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Рузбой Нормухаматов, Акрам Джуракулович Гафуров, Ирода Болиева Флавоноидлар ва инсон саломатлиги	36
Botir Khayat Muradov, Olimjon Komiljonovich Muratkulov Problems and solutions to the prospects for the transition of mining enterprises to a green economy on the example of the coal industry	39
Рузбой Нормухаматов, Акрам Джуракулович Гафуров, Суннат Бозоров Озуқабоп тоғлар ва соғлом овқатланиш	42
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Shuhrat Marufjonovich Islomov, Avazbek Sa'dullayevich Qarshiyev Mehnat bozorida o'zgarishlarning o'rtacha ish haqiga ta'siri va uning tahlili	45
Maftuna Shavkatovna Xudayarova Aholining tadbirkorlik faolligini baholashning hududiy yondashuvi	50
Murodbek Dusmurot o'g'li Usmonov Qishloq joylarida aholi bandligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llari	57
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Дилбар Хасановна Асланова, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Анализ предложения на рынке услуг высшего образования и тенденции его развития	61
Обид Мамаюнусович Пардаев Юқори технологик хизматларнинг назарий масалалари ва уларнинг коммунал хизматлар соҳасида қўлланилиши	64

<p style="text-align: center;">Ш.Исламов, А. Каршиев</p> <p style="text-align: center;">Влияние изменений на рынке труда на среднюю заработную плату и его анализ</p> <p>Аннотация. В данной статье анализируется влияние изменений на рынке труда на среднюю заработную плату в Узбекистане и выявляются факторы, играющие важную роль в этом процессе. Также рассматривается влияние экономических кризисов, демографических изменений и государственной политики на динамику заработной платы. Результаты исследования будут способствовать выявлению факторов, влияющих на формирование средней заработной платы, обеспечению стабильности рынка труда и разработке эффективных политических решений.</p> <p>Ключевые слова: рынок труда, средняя заработная плата, динамика заработной платы, занятость, рабочая сила, трудовая миграция, технологические инновации, автоматизация.</p>	<p style="text-align: center;">Sh.Islomov, A.Karshiev</p> <p style="text-align: center;">The impact of labor market changes on average wages and its analysis</p> <p>Abstract. This article analyzes the impact of changes in the labor market on average wages in Uzbekistan and identifies the key factors influencing this process. It also examines the effects of economic crises, demographic changes, and government policies on wage dynamics. The results of the study aim to identify the factors affecting the formation of average wages, ensure the stability of the labor market, and contribute to the development of effective policy decisions.</p> <p>Keywords: labor market, average wage, wage dynamics, employment, labor force, labor migration, technological innovation, automation.</p>
--	--

Maftuna Shavkatovna Xudayarova – TDIU Samarqand filiali tayanch doktoranti

AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLLIGINI BAHOLASHNING HUDUDIY YONDASHUVI

<p>Annotatsiya. Maqolada aholini tadbirkorlikka jalb etishning “mahallabay” yondoshuvi tadqiq etilgan. Unda aholining tadbirkorlik faolligi Pastdarg‘om tumani Mahalla fuqarolar yig‘inlari misolida tahlil etilgan va mahallalar “yashil”, “sariq” va “qizil” ranglar bo‘yicha toifalangan va tasniflangan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini dastur doirasida qo‘llab-quvvatlashning mahallabay ishlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif qilingan.</p> <p>Kalit so‘zlar: hududlar rivojlanishi, “mahallabay” yondoshuv, tadbirkorlik faoliyati, kichik tadbirkorlik subyektlari, Mahalla fuqarolar yig‘inlari toifasi, Mahalla fuqarolar yig‘inlari tasnifi, baholash, metodologiya.</p>
--

Kirish. Ma‘lumki, «O‘zbekiston - 2030»¹ strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha maqsadlar va 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari ham belgilab qo‘yilgan. Jumladan, strategiyaning barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash yo‘nalishi bo‘yicha hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish kabi asosiy maqsadlar qo‘yilgan. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish borasidagi vazifalarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862 – son qarori o‘ta muhim ahamiyatga ega. Mazkur hujjatda “...hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishda istiqbolga yo‘naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun uni kompleks baholashning hamda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda ularga tezkorlik bilan va lozim darajada javob qaytarishning yagona muvofiqlashtirilgan mexanizmi yo‘qligi to‘sqinlik qilmoqda”² deb ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan kelib chiqib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikning rolini mahallabay ish uslubida baholashning mezon va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentyabrda «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida. 2020-yil 1-may, PQ-4702 – son.

ko'rsatkichlarini ishlab chiqishni lozim deb topdik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xizmat ko'rsatish sohasida aholining tadbirkorlik faolligini oshirishning fundamental masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan, jumladan, F. Engels, A.V. Chayanov, G. S. Bekker, R. S. Anderson, R. Bastso, D. M. Reeb, G. A. Tanevski, D. Prayogo, A. Soxal, T. Beer, Y. A. Drexler, S. Faulkner, S. M. Daililar va boshqalar. O'zbekistonda A.O'lmasov, H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatov, U.D. Axmedov, B.Berkinov, M.K. Pardayev, I.L. Pugach, R.B. Murtazina, G.M. Shadiyeva, D.T.Yuldashev, Sh.O.Kuvandikov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, ranglar bo'yicha guruhlash va toifalash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistic va matematik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy adabiyotlarda hududlarni rivojlantirishning turli xil yondashuvlari mavjud. Bu borada, hududlarni o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash ko'rsatkichlari taklif etilgan¹. Hududlarning kichik tadbirkorlikni rivojlanish darajasiga ko'ra reytingini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan².

Mamlakatimizda ham hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli omillari o'rganilgan. Jumladan, iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida mintaqa iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan yetakchi sohalar va hududlarni kompleks barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash masalalari³, O'zbekiston Respublikasi hududlarining innovatsion rivojlanishi muammolari⁴, mamlakat hududlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari va uning asosiy omili sifatida yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari tahlil qilingan⁵, hududlarni bir tekisda rivojlanishini ta'minlash, hududlarda istiqomat qiladigan aholi daromadlari o'rtasidagi keskin farqlanishni oldini olish bilan bog'liq masalalarni makro va mikroiqtisodiy darajada hal etish bo'yicha tavsiyalar berilgan⁶. Shuningdek, hududlar innovatsion tizimi, hududiy innovatsion tuzilmalarning tasniflanishi, innovatsion salohiyatning jamlanish omillari hamda hududning innovatsion salohiyati tuzilmasi tadqiq etilgan⁷. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va uning raqobatbardoshligini ta'minlashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari o'rganilgan⁸.

Bu borada biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot hududlar rivojlanishida tadbirkorlik rolini “mahallabay” yondoshuvida baholashga qaratildi. Shu o'rinda mahalla institutining davlat va jamiyat tizimidagi o'rniga to'xtalib o'tamiz.

Mahalla — O'zbekistonda ma'muriy hududiy birlik, o'zini o'zi boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli⁹. Mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari — fuqarolarning xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishi, davlat va jamiyat

¹ Гретченко А. И. и др. Показатели оценки потенциала саморазвития территории // Вестник Российского экономического университета имени Г. В. Плеханова. – 2013. – № 12, с. 70-74.

² Ловкова Е. С., Абрамова Ю. В. Рейтинг регионов по уровню развития малого предпринимательства // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №5. С. 314-323. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/42/41>.

³ Khidirova, G. (2018) "The methods of identify impact of leading industry on social-economical development," International Finance and Accounting: Vol. 2018: Iss. 4, Article 15. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss4/1>

⁴ Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Умарова Азиза Илхамбабаевна Ўзбекистон республикаси худудларининг инновацион ривожланишини такомиллаштириш йўллари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-respublikasi-ududlarining-innovatsion-rivozhlanishini-takomillashtirish-y-llari> (дата обращения: 28.08.2020).

⁵ Олимов М. К. (2019). Худудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш: ўзига хос жиҳатлар ва асосий омиллар.

Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари, 1(1), 6. извлечено от

https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/226

⁶ Мустафакулов Ш. Худудларнинг инвестицион жозибadorлиги: аниқлашнинг услубий жиҳатлари ва таъсир кўрсатадиган омилларнинг таснифий таҳлили // Центр научных публикаций в Узбекистане. – 2019. – С. 22-22.

⁷ Абдувалиев А. А. Худудларнинг ижтимоий-иқтисодий муҳитида инновацион тизимни ривожлантиришнинг назарий асослари // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2016. – №. 7.

⁸ Каримов Д.А. Республика худудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таҳлил қилишда рейтинг баҳолаш тизимининг моҳияти ва афзалликлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнал. №5, сентябр-октябр, 2020 й

⁹ <https://qomus.info/?s=%D0%9C%D0%B0%D2%B3%D0%B0%D0%BB%D0%BB%D0%B0+%D1%84%D1%83%D2%9B%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0%BB%D0%B0%D1%80+%D0%B9%D0%B8%D2%93%D0%B8%D0%BD%D0%B8&submit=>

ishlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etishi vositalaridan biri. Asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga bog‘liq masalalarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishini ta‘minlashdir¹.

Hududlar rivojlanishida tadbirkorlikning rolini “mahallabay” yondashuvida baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanildi:

- MFYlar hududidagi aholi soni (birl);
- MFYlar hududidagi kichik tadbirkorlik subyektlari soni (birl);
- MFYlar hududidagi kichik tadbirkorlik subyektlari sonining aholi soniga nisbatan ulushi (birl).

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini “mahallabay” yondashuvida baholash metodikasi har bir MFYni tadbirkorlikning rivojlanish darajasiga ko‘ra toifalash imkonini beradi. Bunda, tadbirkorlikning mahalladagi tadbirkorlik subyektlar sonini, aholini qamrab olish darajasi asosiy mezon sifatida qaralishi o‘ta muhim. Shunga ko‘ra, yuqori (1,5 va undan yuqori) - “yashil”, o‘rta (0,7 dan-1,4 gacha) - “sariq” va past (0,0 dan – 0,6 gacha) - “qizil” toifadagi MFYga toifalash tavsiya etildi (1-jadval).

1 - jadval

Hududlarda aholining tadbirkorlik faolligini “mahallabay” yondashuv asosida baholash va toifalash metodikasi

Hudud	MFY (Mahalla nomi)	Aholi soni	Kichik tadbirkorlik subyektlari soni		MFY Toifasi
			Jami	Ulushi,%	
1	2	3	4	$5 = [4] * 100 \% / [3]$	6 = 5 = (1,5 va undan yuqori) - “yashil”; (0,7-1,4) - “sariq”; (0,0 dan – 0,6) - “qizil”

Manba: Pastdarg‘om tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida Pastdarg‘om tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tadbirkorlik faoliyatining roli 2024-yil holatiga ko‘ra baholandi. Ma‘lumot o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, tumandagi 107 ta MFYlarda tadbirkorlikning rivojlanish darajasi bir-biridan keskin farq bilan ajralib turadi. Xususan, ularning mahallalar kesimida soni bo‘yicha rivojlanishi quyidagi tendensiyani namoyon etdi:

- eng yuqori darajada rivojlangan MFYlar: Qatorterak MFY(945 ta), Yangiobod MFY(730 ta), Kamolot MFY(293 ta), Amir Temur nomli MFY(140 ta), Bo‘ston MFY(108 ta), Charxin MFY(142 ta), Samarqand MFY(100 ta), Xovuzak MFY(59ta);
- o‘rta darajada rivojlangan MFYlar: Go‘zalkent MFY(70 ta), Paxtakor MFY(69 ta), Ag‘ron MFY(59 ta), Alisher Navoiy nomli MFY(46 ta), Balxiyon MFY(115 ta), Beshbola MFY(71 ta), Boltali MFY(59 ta), Chandir MFY(69 ta), Chortut MFY(119 ta), Esaboy MFY(38 ta), Eski Juma MFY(73 ta) , Jaul Qosim nomli MFY(70 ta), Nayman MFY(98 ta), O‘rta Charxin MFY(71 ta), Oltiqaxramon MFY(75 ta), Paxtachi MFY(29 ta), Po‘latchi MFY(97 ta), Qorag‘uppa MFY(80 ta), Quqoni MFY(60 ta), Sazog‘on MFY(53 ta), Sharof Rashidov nomli MFY(62 ta), Tinchlik MFY(53 ta), Torariq MFY(43 ta), Tuqboy MFY(81 ta), Xonchorbog‘ MFY(89 ta) ;
- eng kam rivojlangan MFYlar: Kushkuduk MFY, Bahor MFY, Baxshiboyi MFY, Beklar MFY, Beshnayman MFY, Bobur nomli MFY, Bog‘ishamol MFY, Bog‘onali MFY va boshqalari to‘g‘ri keladi (2-jadval).

Agar tadbirkorlikning tuman iqtisodiyoti uchun beradigan samarasini Pareto usuli (80/20) da hisoblasak, 20 % tadbirkorlik rivojlangan MFYlar tuman (shahar)ga ularning barchasi hisobiga erishish mumkin bo‘lgan iqtisodiy samaraning 80 %ni ta‘minlashi mumkin. Shunga asoslanib, 2024-yil uchun Pastdarg‘om tumanining 107 ta MFYlari bo‘yicha tadbirkorlikni rivojlanish holati tasniflandi (2-jadval).

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (105 - модда); «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг қонуни (1999 й. 14 апрел).

2024-yil uchun Pastdarg‘om tumanida tadbirkorlik faoliyatining MFYlar bo‘yicha rivojlanish tasnifi


MFY nomi	Toifasi	Tasnifi
Qatorterak MFY, Yangiobod MFY, Kamolot MFY, Amir Temur nomli MFY, Bo‘ston MFY, Charxin MFY, Samarqand MFY, Xovuzak MFY;	“Yashil”	Yuqori daraja. Bu MFYlar tumanda “Har bir oila - tadbirkor” Davlat Dasturi maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda yetakchilik qiladi. Ular tumandagi barcha MFYlarining 7,5 %ini tashkil etadi. Ushbu mahallalarga jami kichik tadbirkorlik subyektlarining 36,9 %i to‘g‘ri keladi. Ular tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, xususan, mahalla aholisi bandligi va daromadlarini oshirishda, yangi ish o‘rinlarini yaratishda hamda kambag‘allikni qisqartirishda munosib hissaga ega bo‘lgan MFY hisoblanadi.
Go‘zalkent MFY, Paxtakor MFY, Ag‘ron MFY, Alisher Navoiy nomli MFY, Balxiyon MFY, Beshbola MFY, Boltali MFY, Chandir MFY, Chortut MFY, Esaboy MFY, Eski Juma MFY, Jaul Qosim nomli MFY, Nayman MFY, O‘rta Charxin MFY, Oltikaxramon MFY, Paxtachi MFY, Po‘latchi MFY, Qorag‘uppa MFY, Quqoni MFY, Sazog‘on MFY, Sharof Rashidov nomli MFY, Tinchlik MFY, Torariq MFY, Tuqboy MFY, Xonchorbog‘ MFY;	“Sariq”	O‘rta daraja. Ushbu MFYlarda tadbirkorlikning rivojlanish darajasi nisbatan past. Ular tumandagi barcha MFYlarining 22,4 %ini tashkil etadi. Ularning kichik tadbirkorlik subyektlaridagi ulushi 25,6 %ga teng. Bu toifaga mansub MFYlardagi oilalar o‘z bizneslarini kengaytirish va aylanma mablag‘larini ko‘paytirish uchun kredit mablag‘lariga va subsidiyalarga ehtiyoji yuqori.
Kushkuduk MFY, Bahor MFY, Baxshiboyi MFY, Beklar MFY, Beshnayman MFY, Bobur nomli MFY, Bog‘ishamol MFY, Bog‘onali MFY, Boldir MFY, Buyuk Turon MFY, Chandirobod MFY, Chimboy MFY, Do‘stlik MFY, Durmonsoy MFY, Elbek MFY, Furqat MFY, Galatut MFY, Gulakandoz MFY, Guliston MFY, Gulobod MFY, Gumbaz MFY, Ilm MFY, Imomjon qadimiy yodgorligi MFY, Iskandari MFY, Istiqbol MFY, Jag‘alboyli MFY, Katta Nayman MFY, Kichik Naymancha MFY, Lolazor MFY, Madaniy yurish MFY, Mang‘itobod MFY, Marakanda MFY, Mash‘al MFY, Mehnat MFY, Mirzatup MFY, Mirzo Ulug‘bek nomli MFY, Mustaqillik MFY, Navbahor MFY, Navro‘z MFY, Novchandir MFY, Olmazor MFY, Oq mang‘it MFY, Oq oltin MFY, Oshik ota MFY, Parcha Chandir MFY, Parchaqora MFY, Qarshiobod MFY, Qo‘shchinor MFY, Qoqsoy MFY, Qoramang‘it MFY, Qorasuv MFY (sobiq Usku mfy),	“Qizil”	Past daraja. Bu toifadagi MFYlar tadbirkorlik infratuzilma-sining rivojlanmaganligi, bozor hududidan, M-37 va 4R47 magistral yo‘lidan uzoqda joylashganligi hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun dastlabki kapitalning yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ular tumandagi barcha MFYlarining 69,9 %ini tashkil etadi. Ushbu mahallalarga jami kichik tadbirkorlik subyektlarining 37,5 %i to‘g‘ri keladi. Ushbu mahallalardagi aholi vakillarining tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun zarur bo‘lgan ichki resurslari — moliyaviy mablag‘lari, mulkiy imkoniyatlari yoki biznes yuritishga mos yashash sharoitlari yetarli emas. Shu sababli, mazkur MFYlar kesimida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “xonadonbay” yondashuv asosida har bir xonadon uchun individual “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, zarur jihozlar bilan ta‘minlash (subsidiyalar ajratish) tizimini joriy etish lozim. Shuningdek, “mahallabay” yondashuv doirasida MFY hududlaridagi bo‘sh turgan binolardan oqilona foydalanish, u yerda tikuvchilik sexlarini tashkil etish va bu jarayonni erkin iqtisodiy zonalar bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Qorovultepa MFY, Qozoq Nayman (Namozgoh) MFY, Quyi Darg‘om MFY, Ravot MFY, Sanchiqul MFY, Shombuloq MFY, Sinchi (O‘rikzor) MFY, Temirxo‘ja MFY, Temiryol MFY, Tozqo‘lton MFY, Turkman MFY, Turon MFY, Turt ayg‘ir MFY, Turttom MFY, Uch tepa MFY, Utarchi MFY, Yangi avlod MFY, Yangiqishloq MFY, Yangiravot MFY, Yangisanoat MFY, Yuqori Bog‘onali MFY, Zangiboyi MFY, Zormon MFY		
--	--	--

Manba: Pastdarg‘om tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu tadqiqot natijalaridan kelib chiqib tumandagi holatni mahallabay kesimida ranglar toifasi ko‘rinishida tuman xaritasini ishlab chiqdik (1-rasm).


Pastdarg‘om tumani MFYlar kesimida xaritasi



1-rasm. Pastdarg‘om tumani MFYlar kesimida aholining tadbirkorlik faolligi rivojlanishining ranglar va toifalar bo‘yicha xaritasi (2024 yil ma’lumotlari asosida)

Xaritadan ko‘rinib turibdiki, Pastdarg‘om tumanida tadbirkorlik faoliyati asosan ayrim markaziy va iqtisodiy imkoniyati yuqori hududlarda (yashil rangda belgilangan mahallalarda) rivojlangan. Shu bilan birga, ko‘pchilik mahallalarda tadbirkorlik faolligi past darajada qolmoqda (qizil rang). Bu esa hududlar bo‘yicha iqtisodiy imkoniyatlar va infratuzilmaning notekis rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Sariq rangli mahallalar esa o‘rta pog‘onada bo‘lib, ularda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Demak, Pastdarg‘om tumanida tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy tafovutlarni kamaytirish, past faollikka ega mahallalarda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish va davlat hamda xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Pastdarg‘om tumanida aholining tadbirkorlik faolligining rivojlanishiga ko‘ra, Samarqand viloyatidagi jami faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining 7,5 foizini, ularning har 100 ta aholiga to‘g‘ri keladigan soni qariyb 1,5 birlikni tashkil etadi. Tumanda ularning soni viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan (2337 ta) 468,6 birlikka yuqoriligini ko‘rsatdi. Boshqacha aytganda kichik tadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha viloyatda 4 – o‘rin, rivojlanish tasnifiga ko‘ra, o‘rta darajadagi “sariq” toifaga xos hudud hisoblanadi (2 - rasm).



2 – rasm. Samarqand viloyati hududlari kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari ko'rsatkichlari (2024-yil uchun).

2024-yil uchun kichik tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha K-means klasterlash natijalaridan ko'rinib turibdiki, Pastdarg'om tumani o'rtacha klasterga kiradi. Bu holat tumanda tadbirkorlik faoliyati nisbatan barqaror rivojlanayotganini ko'rsatsa-da, yetakchi hududlar — xususan Samarqand shahri bilan solishtirilganda sezilarli tafovut mavjud. Pastdarg'omda tadbirkorlik subyektlarining soni viloyatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori emas, ammo rivojlanish salohiyati yetarlicha mavjud. Shu bois tumanda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, infratuzilmani yaxshilash va aholining biznes tashabbuslarini rag'batlantirish orqali yuqori klasterga ko'tarilish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotda Pastdarg'om tumanida aholining tadbirkorlik faolligini oshirish bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki, MFYlar kesimida tadbirkorlikni boshlash va qo'llab-quvvatlash uchun mahalla tavsiyasi bilan beriladigan imtiyozli kreditlar hajmini “yashil” – 10 %, “sariq” – 20 % va “qizil” toifadagi mahallalarga – 70 % gacha nisbatda tabaqalashtirilgan holda ajratish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi.

Pastdarg'om tumanida aholining tadbirkorlik faolligining rivojlanish holatini tahlil qilish asosida 2025-yil uchun tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida aholini tadbirkorlikka jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi:

- “Ayollar daftari”da turgan xotin-qizlarni tomorqadan unumli foydalanishga, uy sharoitida hunarmandchilik va kasanachilik mehnatiga hamda issiqxonalar tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish (“qizil” hududdagi 83 ta MFYlarda);
- Tuman hududi bo'ylab o'tgan R-47 asosiy magistral yo'lidagi xonadonlar bo'ylab savdo nuqtalarini tashkil etish bo'yicha imtiyozli kreditlar salmog'ini oshirish;
- Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish orqali ishlab chiqarishning yangi yo'nalishlarini yaratish, ish o'rinlari soni va sifatini oshirishda zamonaviy yondashuv uslublarini joriy etish;
- Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishi bor yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Tuman MFYlari qoshida “Biznes klub”lar faoliyatini yo'lga qo'yish;
- MFYlarida “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni “Ustoz-shogird” an'analari bo'yicha hunarmand, haykaltarosh va tadbirkorlarga birkiritish orqali ular bandligini ta'minlashga ko'maklashish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida quyidagilarga erishiladi:

- Mahallada “Ayollar daftari”da ro'yxatda turuvchi har bir xonadonning pasporti va rivojlanish yo'l xaritasini ishlab chiqish asosida bandligi ta'minlanadi;
- Mahallalarda har bir xonadonning o'sish nuqtalari aniqlanib, xonadon sohiblarining kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, kredit va subsidiyalar olish bo'yicha imkoniyatlari oshadi;

- Mahallalarda aholini tadbirkorlikka jalb etishning xonadonbay ishlash texnologiyasi, hokim yordamchilari ish faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha mufassal ish reja loyihasi va bu jarayonlarni baholashning takomillashgan metodologiyasi yaratiladi;
- Samarqand tumani MFYlarining rivojlanish darajasi bo'yicha reyting ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi;
- MFYlar rivojlanish darajasiga ko'ra toifalarga ajratiladi;
- Buyurtmachi tashkilotga MFYlarga davlat moliyaviy resurslarini samarali taqsimlashning asoslantirilgan parametrlari taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida. 2020-yil 1-may, PQ-4702 – son.
3. Ловкова Е. С., Абрамова Ю. В. Рейтинг регионов по уровню развития малого предпринимательства // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №5. С. 314-323. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/42/41>.
4. Shadieva, G. M., & Kuvandikov, S. O. (2021). "Mahallabay" approach to assessing the role of family entrepreneurship in regional development. *Экономика: анализы и прогнозы*, (3), 122-126.
5. Олимов М. К. (2019). Худудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш: ўзига хос жиҳатлар ва асосий омиллар. Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари, 1(1), 6. извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/226
6. Каримов Д.А. Республика худудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таҳлил қилишда рейтинг баҳолаш тизимининг моҳияти ва афзалликлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнал. №5, сентябр-октябр, 2020 й.

<p>М.Худаярова</p> <p>Территориальный подход к оценке предпринимательской активности населения</p> <p>Аннотация. В статье рассматривается «соседский» подход к привлечению населения к предпринимательству. Проведен анализ предпринимательской активности населения на примере махаллинских сходов граждан Пастдаргомского района, проведена классификация махаллей по «зеленому», «желтому» и «красному» цвету. Также предложены научно-практические рекомендации по развитию системы поддержки предпринимательской деятельности на базе махалли в рамках программы.</p> <p>Ключевые слова: региональное развитие, «соседский» подход, предпринимательская активность, субъекты малого бизнеса, категория махаллинских сходов граждан, классификация махаллинских сходов граждан, оценка, методология.</p>	<p>М.Khudayarova</p> <p>Territorial Approach to Assessing the Entrepreneurial Activity of the Population</p> <p>Abstract. The article studies the "neighborhood" approach to attracting the population to entrepreneurship. It analyzes the entrepreneurial activity of the population using the example of Mahalla citizens' assemblies of Pastdargom district, and categorizes and classifies mahallas into "green", "yellow" and "red" colors. Also, scientific and practical recommendations are proposed for the development of a mahalla-based system of supporting entrepreneurial activity within the framework of the program.</p> <p>Keywords: regional development, "neighborhood" approach, entrepreneurial activity, small business entities, category of Mahalla citizens' assemblies, classification of Mahalla citizens' assemblies, assessment, methodology.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.